

AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH VA BYUDJET-SOLIQ TIZIMINI OQILONA BOSHQARISH

Abdusalomova Nodira Baxodirovna

TDIU "Buxgalteriya hisobi" kafedrası mudiri, i.f.d., professor

Botirjonova Bonu Baxtiyor qizi,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Annotatsiya. Bugungi kunda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Moliyaviy bilimlarning yetarli darajada bo'lmashligi aholining shaxsiy mablag'larini boshqarish, soliqlarni to'g'ri tushunish hamda moliyaviy xizmatlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli ko'plab davlatlarda moliyaviy savodxonlikni oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Aholining moliyaviy savodxonligi past bo'lgan sharoitda byudjet va soliq tizimining samaradorligi ham pasayadi. Chunki fuqarolarning soliq majburiyatlarini to'liq tushunmasligi yoki moliyaviy rejalashtirish ko'nikmalarining yetarli emasligi iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi aholining moliyaviy savodxonligini oshirishning nazariy asoslarini o'rganish hamda byudjet-soliq tizimini samarali boshqarishdagi ustuvor yo'nalishlarni aniqlashdan iborat.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, byudjet-soliq tizimi, tadbirkorlik, xorijiy tajriba, iqtisodiy barqarorlik.

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash nafaqat davlat moliya siyosatining samaradorligiga, balki aholining moliyaviy savodxonlik darajasiga ham bevosita bog'liqdir. Moliyaviy savodxonlik aholi tomonidan moliyaviy xizmatlardan oqilona foydalanish, shaxsiy byudjetni samarali boshqarish hamda investitsiya va jamg'arma qarorlarini to'g'ri qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, davlat darajasida byudjet-soliq tizimini oqilona boshqarish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish hamda fiskal intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar jarayonida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va fiskal boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlik darajasining yuqori bo'lishi aholining jamg'arma darajasini oshiradi, investitsion faollikni rag'batlantiradi hamda iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli rivojlangan davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha turli dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada aholining moliyaviy savodxonligini oshirishning iqtisodiy ahamiyati hamda byudjet-soliq tizimini oqilona boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish byudjet va soliq tizimini samarali boshqarishga qanday yordam beradi? O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar jarayonida moliya tizimi faol rivojlanayotgan bo'lsada, aholining moliyaviy savodxonligi hali yetarli darajada shakllanmagan. Bu holat aholining moliyaviy xizmatlardan samarali foydalanishiga, shaxsiy moliyani boshqarishiga hamda soliq majburiyatlarini to'g'ri bajarishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Moliyaviy bilimi yetarli darajada rivojlanmagan fuqarolarning soliqlarga bo'lgan munosabati sust bo'ladi. Soliq majburiyatlari haqida yetarli bilimga ega bo'lmagan shaxslar soliqlardan qochishga moyillik ko'rsatadi. Davlat byudjetiga tushumlarning kamayishi natijasida ijtimoiy dasturlar hamda infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.¹⁹³

Mazkur holat aholining moliyaviy savodxonligini oshirish zaruratini yanada dolzarb etadi. Fuqarolarda soliqlarning iqtisodiyotdagi o'rni va davlat byudjetini shakllantirishdagi ahamiyati haqida yetarli tushuncha shakllantirilsa, soliq majburiyatlariga nisbatan mas'uliyatli munosabat ham ortadi. Natijada soliq intizomi mustahkamlanib, davlat byudjetiga tushumlar barqarorligi ta'minlanadi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish imkoniyatlari kengayadi. Moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish bo'yicha dasturlar qator rivojlangan mamlakatlarning davlat siyosatida ustuvor masala hisoblanadi, ayniqsa, G'arbda bu sohaga alohida e'tibor qaratiladi. Bunday chora-tadbirlar fuqarolarni o'z daromadlarini to'g'ri boshqarish, unumli sarmoyalar kiritish, jamg'arish va tejab sarflashga o'rgatish uchun mo'ljallangan. Gap shundaki, o'z sarmoyasini to'g'ri boshqarish bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lmaslik pala-partish sarf-xarajatlar, turli moliyaviy piramidalar hamda boshqa shubhali daromad manbalariga qiziqish natijasida mablag'dan ayrilish holatlariga olib keladi. Bu esa o'z navbatida odamlarni kambag'allikka yoki uning chegarasiga keltirib qo'yishi, ularni jamg'armasiz yoki ishsiz qoldirishi mumkin. Kambag'allik nafaqat alohida shaxslar, balki davlat uchun ham xavfli, chunki u iqtisodiyotni rivojlantirishni to'sadi, jinoyatchilik darajasini oshiradi hamda kambag'allarni ijtimoiy nafaqalar bilan ta'minlashdek og'ir yukni davlat yelkasiga ortadi. Aynan shu sababli keyingi yillarda moliyani to'g'ri boshqarish mavzusi tez-tez muhokama qilinmoqda.¹⁹⁴ Shu bois aholining moliyaviy savodxonligini oshirish nafaqat fuqarolarning shaxsiy moliyaviy barqarorligini ta'minlash, balki davlatning byudjet-soliq tizimini samarali boshqarish uchun ham muhim omil hisoblanadi. Moliyaviy jihatdan savodli fuqarolar daromadlarini oqilona rejalashtiradi, soliqlarni o'z vaqtida to'laydi hamda iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etadi. Natijada davlat byudjetiga tushumlar barqarorlashib, ijtimoiy dasturlar va iqtisodiy rivojlanish loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlari kengayadi.

Moliyaviy savodxonlikka ega bo'lgan tadbirkorlar tomonidan boshqariladigan kichik va o'rta korxonalar omon qolish bo'yicha yuqori natijalarni namoyish qilgan. Bu esa ayniqsa qishloq hududlarida yangi ish o'rinlarini yaratishda sezilarli o'rin tutgan. Ushbu ma'lumotlar moliyaviy ta'limning nafaqat individual muvaffaqiyat uchun, balki jamiyatdagi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish va aholi farovonligini oshirish uchun muhim ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari moliyaviy bilimlarni oshirish bo'yicha maxsus dasturlar va resurslarni ishlab chiqish zarurligini tasdiqlaydi. Bu nafaqat tadbirkorlarning moliyaviy qarorlarini yaxshilash, balki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shish uchun ham zarurdir¹⁹⁵

¹⁹³ Pulatova, A.D. – "Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va byudjet-soliq tizimini oqilona boshqarishdagi ustuvor masalalar". International School of Finance Technology and Science Institute

¹⁹⁴ Nazarova R.R. Aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirishning ahamiyati. Ilmiy, amaliy va ommabop jurnal.

¹⁹⁵ Xidirov N.G., Olqarova Z.N. (2024). Aholi moliyaviy savodxonligi darajasining ijtimoiy hayotga ta'siri. *Science and Education*,

Lusardi A. va Mitchell O.S. (2014) moliyaviy savodxonlikning noto'g'ri qarorlarni oldini olish va shaxsiy moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini o'rganib, moliyaviy ta'lim dasturlarini kengaytirish zarurligini ta'kidlaydilar¹⁹⁶ Bundan kelib chiqadigan bo'lsak aholining moliyaviy savodxonligini oshirish nafaqat individual moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, balki kichik va o'rta korxonalarni omon saqlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shish uchun ham zarurdir. Moliyaviy ta'lim dasturlari fuqarolarni to'g'ri moliyaviy qaror qabul qilishga o'rgatadi, byudjet va soliqlarni samarali boshqarishga undaydi, natijada jamiyatdagi iqtisodiy faoliyat kengayadi va aholi farovonligi oshadi.

“Moliyaviy savodxonlikni juda erta yoshdan boshlash muhimligini tushunishimiz kerak. Bolalarda moliyaviy savodxonlikni qanday oshirish mumkin? Avstraliyada 5- 12 yoshli bolalarning moliyaviy savodxonligini oshirish maktab bog'i dasturi doirasida ta'limdan foydalanilgan”. Ushbu tadqiqot moliyaviy savodxonlikni maktab bog'i dasturiga kiritish bo'yicha darsliklar ishlab chiqilgan. U Avstraliyadagi boshlang'ich ta'lim sharoitida bitta maktab bozori bog'dorchilik dasturidan misol tariqasida foydalanish orqali buni amalga oshirishga intiladi, uning o'quvchilarda moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishdagi roli va foydalarini o'rganadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bozor bog'i dasturiga jalb qilingan talabalar moliyaviy savodxonlikni o'rganishda ijobiy tajribaga ega bo'lishdi. Hayotda farovon yashashga, halol mehnat qilishga, sabr va qadr kabi qadriyatlarga ega bo'lishganini kuzatish mumkin. Bundan tashqari maktablarda o'qitiladigan fanlar orqali -texnologiya, kompyuter savodxonligi, dasturlash va boshqa darslar davomida olgan bilim va ko'nikmalarini o'quvchilar o'z mahsulotida ko'rsata oladi, sifatiga e'tibor beradi, topgan pulini boshqarish va sarflay olish ko'nikmalari rivojlanadi, jismoniy mehnat bolaning pul ilmini shakllanishiga yordam beradi.¹⁹⁷

Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, moliyaviy savodxonlikni erta yoshdan rivojlantirish jamiyat iqtisodiy barqarorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Bolalarni moliyaviy bilimlar bilan ta'minlash nafaqat ularning shaxsiy moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, balki kelajakda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, jamiyatdagi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Maktab bog'i va boshlang'ich ta'lim dasturlariga moliyaviy savodxonlik elementlarini kiritish orqali yosh avlodga pulni oqilona boshqarish, sarmoya kiritish va tejash kabi muhim ko'nikmalarni o'rgatish mumkin. Natijada nafaqat individual, balki butun jamiyatning iqtisodiy farovonligi oshadi.

Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish bizga bir nechta asosiy xulosalarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Birinchidan, muvaffaqiyatli moliyaviy savodxonlik dasturlari, odatda, asosiy byudjetlashtirish ko'nikmalaridan tortib investitsiyalarga tayyorlikgacha bo'lgan shaxsiy moliyaning turli jihatlarini qamrab oluvchi kompleks yondashuvni qo'llaydi. Ikkinchidan, samarali dasturlar o'rganishni yanada qiziqarli va turli auditoriyalar uchun ochiq qiladigan o'yinlar, amaliy tadqiqotlar va amaliy mashqlar kabi interfaol o'qitish usullarini o'z ichiga oladi. Ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda o'quvchilarning madaniy

¹⁹⁶ Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The economic importance of financial literacy: Theory and evidence. *Journal of Economic Literature*, 52(1), 5–44.

¹⁹⁷ Pulatova M.B., Abdulatipova R.Sh. (2023). Yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirishning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri. *Science and Education*.

xususiyatlarini va individual ehtiyojlarini hisobga olish ham muhimdir¹⁹⁸ Moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarini joriy etishda nafaqat xorijiy muvaffaqiyatli tajribalarni o'rganish, balki ularni mahalliy sharoitga moslashtirish zarur. Kompleks yondashuv va interfaol o'qitish metodlarini qo'llash orqali fuqarolarning byudjetni rejalashtirish, sarmoya kiritish va moliyaviy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini samarali rivojlantirish mumkin. Shu tariqa, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va jamiyat farovonligini oshirishga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda moliyaviy savodxonlikning oshirilishi nafaqat individual moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, balki jamiyat iqtisodiy faoliyatini kengaytiradi va davlat byudjetiga tushumlarning barqarorligini mustahkamlaydi. Tadbirkorlar va fuqarolar orasida moliyaviy bilimlar oshirilsa, kichik va o'rta korxonalar samarali faoliyat yuritadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va ijtimoiy farovonlik oshadi. Xorijiy tajribalar ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli moliyaviy savodxonlik dasturlari kompleks yondashuvga, interfaol metodlarga va madaniy xususiyatlarni hisobga olishga asoslangan bo'lishi kerak. Shu bois, moliyaviy savodxonlikni erta yoshdan rivojlantirish va maktab va boshlang'ich ta'lim dasturlariga kiritish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda jamiyat farovonligini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pulatova M.B., Abdulatipova R.Sh. (2023). *Yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirishning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri. Science and Education.*
2. Azimov S. (2024). *Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishda xorij tajribasi. Qo'qon universiteti xabarnomasi*
3. Pulatova, A.D. – "Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va byudjet-soliq tizimini oqilona boshqarishdagi ustuvor masalalar". *International School of Finance Technology and Science Institute*
4. Nazarova R.R. *Aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirishning ahamiyati. Ilmiy, amaliy va ommabop jurnal.*
5. Xidirov N.G., Olqarova Z.N. (2024). *Aholi moliyaviy savodxonligi darajasining ijtimoiy hayotga ta'siri. Science and Education,*
6. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). *The economic importance of financial literacy: Theory and evidence. Journal of Economic Literature, 52(1), 5–44.*

DAVLAT PENSIYA TIZIMINING MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ibragimov Shohruh Farruxovich
Bank-moliya akademiyasi, magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat pensiya ta'minoti tizimining amaldagi holati va uni takomillashtirish yo'nalishlari va O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining o'ziga xos xususiyatlari va takomillashtirish yo'llari yoritib berilgan shuningdek, jahonda mavjud pensiyata'minoti tizimi, nodavlat pensiya ta'minoti tizimi keltirilgan hamda xorij tajribasini qo'llagan holda mavjud pensiya tizimidagi muammolarni bartaraf etish va takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

¹⁹⁸ Azimov S. (2024). *Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishda xorij tajribasi. Qo'qon universiteti xabarnomasi*